

IJTIMOY PROFILAKTIKANING KRIMINOLOGIK VAZIYAT BARQARORLIGIDAGI O'RNI



Berdialiyev Baxtiyor Erkinovich

Kriminologiya tadqiqot instituti boshlig'i
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy profilaktikaning nazariy asoslari va uning kriminologik vaziyat barqarorligidagi ahamiyati tahlil qilingan. Jinoyatchilikning kriminogen omillari, ularning ijtimoiy muhitga ta'siri va profilaktika chora-tadbirlari o'zaro bog'liqlikda yoritilgan. Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi milliy qonunchilik, xalqaro tajriba hamda jamoatchilikka tayangan konsepsiyalar asos sifatida foydalanilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy profilaktika, kriminologik vaziyat, kriminogen omillar, huquqbuzarliklarni oldini olish, huquq tartibot, huquqbuzarlik, jinoyatchilik, kriminologiya.

РОЛЬ СОЦИАЛЬНОЙ ПРОФИЛАКТИКИ В СТАБИЛИЗАЦИИ КРИМИНОЛОГИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ

Аннотация. В статье анализируются теоретические основы социальной профилактики и её значение для стабилизации криминологической ситуации. Криминогенные факторы преступности, их влияние на социальную среду и профилактические меры рассматриваются во взаимосвязи. В качестве основы используются национальное законодательство о профилактике преступности, международный опыт и концепции, основанные на принципах социальной ответственности.

Ключевые слова: социальная профилактика, криминологическая ситуация, криминогенные факторы, профилактика преступлений, правопорядок, преступность, криминал, криминология.

THE ROLE OF SOCIAL PREVENTION IN STABILIZING THE CRIMINOLOGICAL SITUATION

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of social prevention and its importance in the stability of the criminological situation. The criminogenic factors of crime, their impact on the social environment and preventive measures are discussed in their interrelation. National legislation on crime prevention, international experience, and community-based concepts are used as a basis.

Keywords: social prevention, criminological situation, criminogenic factors, crime prevention, law and order, crime, criminality, criminology.

Jamiyat taraqqiyoti, iqtisodiy barqarorlik va fuqarolar farovonligi, avvalo, huquq-tartibot va xavfsizlikning ta'minlanishiga bevosita bog'liq. Huquqbuzarliklar va jinoyatchilikning ko'payishi nafaqat alohida shaxs yoki muayyan hudud uchun, balki butun jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois kriminologik vaziyatni muntazam tahlil qilish va uni barqaror holda ushlab turish davlat va jamiyat oldidagi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Kriminologik vaziyat — muayyan hududda jinoyatchilik holati, huquqbuzarliklar dinamikasi, ularning ijtimoiy omillar bilan o'zaro bog'liqligini ifodalovchi ko'p qirrali tushuncha. Uning barqarorligi yoki aksincha, keskinlashuvi jinoyatchilikning oldini olish, qonun ustuvorligi va jamoat xavfsizligi bilan chambarchas bog'liq. Masalan, iqtisodiy qiyinchiliklar, ishsizlik yoki ijtimoiy tengsizlik kabi omillar kriminogen vaziyatning yomonlashishiga ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, jinoyatchilikka qarshi kurashning asosiy vositasi sifatida faqat jazo choralariga tayanish yetarli emas. Zamonaviy kriminologiyada jinoyatchilikning ildiz sabablariga ta'sir etish, ya'ni xavfli omillarni bartaraf qilish va oldindan profilaktika qilish muhim hisoblanadi. Bu jarayon "ijtimoiy profilaktika" tushunchasi bilan ifodalanadi.

Ijtimoiy profilaktika – huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar, oilalar, hududlar va ijtimoiy muhitni oldindan aniqlash va ular bilan tizimli ish olib borish jarayoni. Uning asosiy maqsadi jinoyatchilik sodir bo'lishidan oldin ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va huquqiy omillarning salbiy ta'sirini kamaytirish yoki to'liq bartaraf etishdan iborat.

Ijtimoiy profilaktikaning kriminologik vaziyat barqarorligidagi o'rni shundan iboratki, u xavfli omillarni ildizidan hal etishga yo'naltirilganligi bilan jazo choralaridan keskin farq qiladi. Bu esa uzoq muddatli ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda asosiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham O'zbekistonda va jahonning ko'plab davlatlarida ijtimoiy profilaktika siyosati huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi davlat dasturlari va milliy qonunchilikning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan.

Kriminologik vaziyat va ijtimoiy profilaktika masalasi jahon va mahalliy ilm-fanda keng muhokama qilinayotgan yo'nalishlardan hisoblanadi. Bu boradagi tadqiqotlar asosan ikki yo'nalishda rivojlanib kelmoqda: birinchisi, kriminogen omillarni aniqlash va tahlil qilish; ikkinchisi, ijtimoiy profilaktika mexanizmlari orqali jinoyatchilikning oldini olish choralarini ishlab chiqish va bartaraf etish.

Xorijiy adabiyotlarda jinoyatchilikka qarshi kurashda profilaktikaning ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Jumladan, H. Goldstein o'zining "Problem-Oriented Policing" asarida [3; 115–117 b.] ichki ishlar faoliyatida jinoyatchilikning kelib chiqish muammolarini aniqlash va ularning ildiz sabablariga yechim topish zarurligini qayd etadi. Uning fikriga ko'ra, kriminologik vaziyatni barqarorlashtirishning eng samarali usuli jamoatchilik

bilan hamkorlikda olib boriladigan profilaktika hisoblanadi.

Clarke va Felsonning "Routine Activity Theory" nazariyasida jinoyatchilik muayyan sharoitlar mavjud bo'lganda, ya'ni "qurbon – jinoyatchi – nazoratchi" uchburchagi yuzaga kelganda sodir bo'lishi, shuning uchun profilaktikaning vazifasi nafaqat jinoyatchini, balki muhit va imkoniyatlarni ham nazorat qilish zarurligi ta'kidlanadi [4; 87-b.].

R. Sampson va B. Groves esa ijtimoiy dezorganizatsiya nazariyasida mahallalardagi uyushqoqlik darajasi past bo'lsa, kriminogen vaziyat keskinlashishi mumkinligini ko'rsatadilar. Ularning fikricha, mahalla va jamoatchilik bilan yaqin hamkorlik profilaktikaning asosiy poydevori hisoblanadi [5; 142-b.].

Mahalliy adabiyotlarda esa O'zbekistondagi kriminologik vaziyat va ijtimoiy profilaktika masalalari huquqiy va amaliy jihatdan o'rganilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunida (2014) profilaktika subyektlarining aniq vazifalari belgilab qo'yilgan bo'lib, jamoatchilik, mahalla tizimi va davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish asosiy yo'nalish sifatida belgilangan [6]. Shuningdek, kriminologiya fani darsliklarida jinoyatchilikning ildiz sabablari va kriminogen omillarining nazariy asoslari ilmiy jihatdan izchil yoritib berilgan [1].

Shu tariqa, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kriminologik vaziyatning barqarorligi profilaktika tadbirlarining to'g'ri tashkil etilishiga uzviy bog'liq. Zamonaviy kriminologiyada jinoyatchilikka qarshi kurashda jazo choralariga emas, balki ijtimoiy profilaktikaga ko'proq e'tibor qaratilayotgani ham ana shu ehtiyojdan dalolat beradi. Shu bilan birga, mahalla instituti profilaktikada muhim rol o'ynaydi. Mahalla fuqarolar yig'ini o'zining aholiga yaqinligi va ijtimoiy nazorat funksiyasini amalga oshirish imkoniyati bilan kriminogen vaziyatni tezroq sezishi va chora ko'rishini mumkin bo'ladi. Shu jihatdan ijtimoiy profilaktikaning kriminologik vaziyat barqarorligidagi o'rni ikki jihatda namoyon bo'ladi: birinchidan, u xavfli omillarni ildizidan bartaraf etishga qaratilganligi

bilan jazo choralaridan farq qiladi; ikkinchidan, u jamiyatning turli qatlamlarini hamkorlikka jalb qilgan holda uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlaydi. Demak, ijtimoiy profilaktika nafaqat jinoyatchilikning oldini olish mexanizmi, balki jamiyatdagi kriminologik vaziyatni barqaror saqlashning eng samarali tizimi hisoblanadi.

Ijtimoiy profilaktikaning samaradorligi ko'p jihatdan kriminologik vaziyatni muntazam monitoring qilish, xavfli omillarni oldindan aniqlash va ularga maqsadli ta'sir ko'rsatish bilan belgilanadi. Bu jarayonda jinoyatchilikning dinamikasi va tuzilishini chuqur tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Masalan, ayrim hududlarda yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar soni ko'proq bo'lishi mumkin, boshqa hududlarda esa maishiy janjallar asosiy muammo sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli profilaktika umumiy emas, balki aniq va manzilli hudud hamda ijtimoiy muhitga mos holda yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Xalqaro amaliyotda profilaktika ishlarini samarali yo'lga qo'yishda turli modellar ishlab chiqilgan. Masalan, Yaponiyadagi "Koban" modeli ichki ishlar organi va aholi o'rtasidagi yaqin muloqotga asoslangan bo'lib, organ xodimlari mahallalarda doimiy ravishda joylashtiriladi va aholining muammolarini tinglab, ularni hal qilish bilan shug'ullanadi [7]. Bu model nafaqat jinoyatchilik darajasini pasaytiradi, balki aholining ichki ishlar xodimlariga bo'lgan ishonchini ham mustahkamlaydi.

AQSHda esa "Community policing" konsepsiyasi keng qo'llaniladi [9]. Unda ichki ishlar organlari mahalla, ta'lim muassasalari va fuqarolik jamiyati tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlaydilar. Shuningdek, profilaktika tadbirlariga aholi ham faol jalb etadilar.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda profilaktika sohasida xalqaro tajribadan foydalanish va uni milliy shart-sharoitga moslashtirish tendensiyasi kuzatilmoqda. Masalan, mahalla tizimini profilaktikada faol jalb etish o'zining samarasini bermiqda. Davlatimiz rahbarining shaxsiy tashabbuslari bilan joriy etilgan, mahalla raisi, hokim yordamchisi, profilaktika inspektori, yoshlar

yetakchisi, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim va soliq inspektoridan iborat "mahalla yettiligi" instituti eng quyi bo'g'inlarda ham ijtimoiy muammolarni erta aniqlash va bartaraf etish imkoniyatini yaratib, qator ijobiy yutuqlarga erishdi. Aynan shu mexanizm asosida mahallalarda bevosita ijtimoiy profilaktika faoliyati yo'lga qo'yilishi bu tizimning chinakam samarasini namoyon etmoqda. Chunki mahallasiz ijtimoiy profilaktika bo'lishi mumkin emas, zero jinoyatchilikning ko'plab ildizlari, ijtimoiy ziddiyatlar va xavf guruhidagi shaxslar aynan shu hududiy maydonda shakllanadi.

Shu bilan birga, profilaktika tizimida ayrim muammolar ham mavjud. Birinchi muammo – profilaktika tadbirlarining ayrim hollarda formal tus olishi, ya'ni haqiqiy samaradorlikka emas, balki hisobot uchun o'tkazilishi. Ikkinchi muammo – profilaktika subyektlari o'rtasidagi hamkorlikning ba'zan yetarlicha tizimli emasligi. Misol uchun, mahalla, ta'lim muassasalari va profilaktika inspektori o'rtasidagi ma'lumot almashish ba'zan kechikishi mumkin, bu esa kriminogen vaziyatni oldindan aniqlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uchinchi muammo – yoshlar o'rtasida profilaktika ishlarining yetarlicha tashkil etilmagani. Ayrim hollarda huquqbuzarlikka moyil yoshlar bilan individual ishlash o'rniga umumiy tadbirlar bilan cheklaniladi.

Shunday bo'lsa-da, profilaktikaning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati beqiyos, u jamiyatda uzoq muddatli barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlaydi. Ijtimoiy profilaktikaning samaradorligi uning nafaqat davlat organlari bilan, balki butun jamiyat ishtirokida amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Bu esa jinoyatchilikka qarshi kurashda keng qamrovli, tizimli va uzviy hamkorlikka asoslangan yondashuvni taqozo etadi.

Kriminologik vaziyatni belgilaydigan ikkinchi yirik omil – ijtimoiy muhit. Oiladagi tartib-intizomning yo'qolishi, zo'ravonlik va ajralishlar ko'payishi, mahalladagi ijtimoiy nazoratning susayishi jinoyatchilikning o'sishiga olib keladi. Aynan mahalladagi ijtimoiy nazorat mexanizmlari (fuqarolar yig'inlari, ko'ngilli qo'riqchilar, mahalla faxriylari) susaysa, yoshlar deviant guruhlar ta'siriga tezroq

beriladi. Sampson va Grouvs o'z tadqiqotlarida mahalla uyushqoqligi jinoyatchilik darajasiga salmoqli ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslab berishgan.

Infratuzilmaviy omillar ham kriminologik vaziyatni belgilaydigan muhim yo'nalishdir. Tungi yoritish tizimi yetarlicha yo'q, nazorat kameralari o'rnatilmagan, qo'riqlanmagan hududlarda jinoyatchilik darajasi yuqori bo'ladi. Masalan, xalqaro tadqiqotlarda qayd etilishicha, nazoratsiz bog'lar va tashlandiq binolar yoshlar tomonidan jinoyat sodir etish uchun qulay hudud sifatida tanlanishi mumkin. Shu bois jinoyatchilikning oldini olishda infratuzilmani takomillashtirish ham ijtimoiy profilaktikaning muhim vazifasi hisoblanadi.

Ma'naviy-ruhiy omillar ham fuqarolar, ayniqsa, yoshlar o'rtasida katta ahamiyatga ega. Deviant xulq-atvor, internet orqali zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi kontentlar va salbiy ta'sir ko'rsatuvchi guruhlar yoshlarda jinoyatga moyillikni kuchaytiradi. Bunday holatlarda profilaktika nafaqat jismoniy nazoratni, balki ma'naviy-ma'rifiy ta'sirni ham o'z ichiga olishi zarur. Yoshlarni sport, madaniyat va ta'limga jalb qilish ularning jinoyatchilikdan uzoqlashishiga olib keladi.

Ijtimoiy profilaktikaning kriminologik vaziyat barqarorligidagi vazifalari turli ko'lamda namoyon bo'ladi. Birinchidan, xavfli omillarning oldindan aniqlash va ularni bartaraf etish profilaktikaning eng asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Bu jarayonda ichki ishlar organlari, mahalla tizimi va ta'lim muassasalari hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, profilaktika jamoatchilik va davlat idoralari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi. Bu hamkorlik faqat yuqori darajada emas, balki mahalliy darajada ham samarali tashkil etilishi kerak.

Uchinchidan, ijtimoiy profilaktika yoshlar va xavfli guruhlar bilan individual ish olib borishni nazarda tutadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jinoyatchilikning oldini olishda individual ish olib borilgan yoshlar jamoaviy tadbirlarda ishtirok etganlarga nisbatan ikki baravar tez ijtimoiylashishi kuzatilgan. Bu esa profilaktikaning maqsadga yo'naltirilganligini ta'minlaydi.

To'rtinchidan, ijtimoiy profilaktika jinoyatchilikning ildiz sabablariga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan. Masalan, ishsizlikni kamaytirish, ma'naviy targ'ibot ishlarini kuchaytirish va oilalarda sog'lom muhitni yaratilishi kriminogen vaziyatni uzoq muddatli barqaror holda ushlab turishga xizmat qiladi.

Kriminologik vaziyatni baholashda hududiy ko'rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi. 2025-yilda O'zbekiston Respublikasida o'tkazilgan tahlillarga ko'ra, 1235 ta mahalla kriminogen vaziyat og'ir bo'lgan hudud sifatida alohida ajratib olindi. Ichki ishlar vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, bunday baholashda bir qator mezonlar inobatga olingan: mahallaning uzoq yillar davomida "qizil" toifadan chiqmaganligi, aholi zichligi, odamlar ko'p to'planadigan maskanlar – bozorlar, bog'lar, kafe va restoranlar mavjudligi kabi omillar. Bu omillar kriminologik vaziyatning og'irlashuvida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Biroq, umumiy statistik manzara optimistik dinamikani ham ko'rsatmoqda. Joriy yilning dastlabki 7 oyida mavjud 9 008 ta mahallaning qariyb yarmida (4 333 ta, 48,1%) umuman jinoyat sodir etilmagan [11]. Shuningdek, 3 671 ta mahallada jinoyatchilik darajasi pasaygani qayd etilgan. Bu natijalar profilaktika tadbirlari muntazam yo'lga qo'yilgan hududlarda ijobiy o'zgarishlar bo'lishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Profilaktika inspektorlarining ish faoliyati ham salmoqli ko'rsatkichlarga ega. Ular tomonidan 2 346 ta jinoyat fosh etildi, 284 nafar qidiruvdagi shaxs qo'lga olindi. Bu raqamlar profilaktikaning faqatgina nazariy emas, balki amaliy samaradorligi ham yuqori ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, profilaktikaning nafaqat jinoyatchilikni fosh etish, balki aholini himoya qilish yo'nalishida ham samarali ekanligini ko'rsatadi.

Joriy yilda respublikamizda ayollarni himoya qilish maqsadida 56 876 nafar xotin-qizga himoya orderi berildi. Bu orderlar orqali ularga nisbatan zo'ravonlik va tazyiq holatlariga barham berish choralari ko'rildi. Shuningdek, ushbu mexanizm natijasida 23 mingdan ortiq oila yarashtirildi, 29 mingdan ortiq nizolarning ildiz sabablari bartaraf

etildi. Bu holat ijtimoiy profilaktikaning nafaqat jinoyatchilikni, balki oilaviy-maishiy nizolarni ham kamaytirishga xizmat qilayotganini ko'rsatadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytda respublikamizda 400 mingga yaqin shaxs profilaktik hisobda turadi. Agar ularning xulq-atvori ijobiy tomonga o'zgarsa yoki uzoq muddatga chet elga chiqib ketsa, mazkur ro'yxatdan chiqarilishi mumkin. Bu holat profilaktikaning dinamikasini, ya'ni shaxsni doimiy tarzda "xavfli" toifada saqlamasdan, balki ijtimoiy rehabilitatsiyaga imkoniyat berishini namoyon etadi.

Yuqoridagi raqamlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kriminologik vaziyat og'ir bo'lgan mahallalarda ijtimoiy profilaktika tadbirlarini yanada kuchaytirish zarur. Buning uchun xavfli omillarni muntazam monitoring qilish, mahalla va davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish hamda yoshlar bilan individual ishni samarali yo'lga qo'yish asosiy vazifa bo'lib qolmoqda.

Shunday qilib, kriminologik vaziyatni belgilaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, infratuzilmaviy va ma'naviy omillar ijtimoiy profilaktika bilan uyg'un holda tahlil qilingandagina barqaror xavfsizlik muhitiga erishish mumkin. Ijtimoiy profilaktika esa nafaqat jinoyatchilikning oldini olish tizimi, balki jamiyat barqarorligi va huquqiy ongning yuksalishiga xizmat qiluvchi strategik yo'nalishdir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, kriminologik vaziyatni barqaror saqlash davlat va jamiyat oldidagi eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jinoyatchilikka qarshi samarali kurashishning asosiy yo'li uning oldini olishdir. Shu bois profilaktika ishlari tasodifiy emas, balki tizimli, maqsadli va izchil ravishda yo'lga qo'yilishi zarur. Tizimlilik deganda, profilaktika tadbirlarining yillik yoki mavsumiy emas, balki doimiy asosda amalga oshirilishi, har bir hududning ijtimoiy xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilishi nazarda tutiladi.


Profilaktikaning muhim yo'nalishi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, davlat idoralari va jamoat institutlari o'rtasida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishdir. Mahalla tizimi, ta'lim muassasalari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida tezkor va ishonchli ma'lumot almashish mexanizmi

yo'lga qo'yilsa, kriminogen vaziyat tezkor tarzda baholanib, xavfli holatlarni oldindan bartaraf etish mumkin bo'ladi. Bu hamkorlikning kuchayishi aholi ishonchini oshiradi, jinoyatchilikning oldini olishda samaradorlikni ta'minlaydi.

Yoshlar bilan individual ish olib borish ham profilaktikaning eng muhim vazifasidir. Chunki jinoyatchilikning asosiy qismi yoshlar hissasiga to'g'ri keladi. Yoshlarning huquqbuzarlikka moyilligini pasaytirish uchun ularni sport, madaniyat va ta'limga jalb etish, ish bilan band qilish, turli ijtimoiy dasturlarda ishtirokini ta'minlash zarur. Individual ishlash orqali yoshlarning qiziqishlari, muammolari va ehtiyojlari hisobga olinib, ularni ijtimoiy hayotga integratsiya qilish jinoyatchilikka moyillikni kamaytiradi.

Shuningdek, profilaktika jarayonida inson huquqlari va shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish tamoyillariga qat'iy rioya etilishi shart. Har qanday profilaktik tadbirda inson qadri, shaxsiy hayoti daxlsizligi va qonun oldida tengligi ta'minlanmasa, bunday choralar samarasiz bo'lib qolishi mumkin. Shu bois huquqbuzarliklar profilaktikasida qonuniylik, insonparvarlik va shaffoflik tamoyillari ustuvor bo'lishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, kriminologik vaziyat barqarorligini ta'minlashda ijtimoiy profilaktika strategik ahamiyatga ega. Uning samaradorligi tizimli yondashuv, zamonaviy tahlil usullari, davlat va jamoat institutlari hamkorligi, yoshlar bilan individual ishlash va inson huquqlariga qat'iy rioya qilishga bevosita bog'liqdir.



Foydalanilgan manbalar

1. Kriminologiya: Darslik. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 356 b.
2. Черкасова Л. Социальная профилактика преступлений. – Москва: Норма, 2018. – 210 с.
3. Goldstein H. Problem-Oriented Policing. – New York: McGraw-Hill, 1990. – P. 115–117.
4. Clarke R., Felson M. Routine Activity and Rational Choice. – New Jersey: Transaction Publishers, 1993. – P. 87.
5. Sampson R., Groves B. Community Structure and Crime. – American Journal of Sociology, 1989. – P. 142.
6. O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni. – Toshkent, 2014.
7. Bayley D. Police for the Future. – Oxford: Oxford University Press, 1994. – P. 49.
8. Sherman L. Evidence-Based Crime Prevention. – London: Routledge, 2002. – P. 102.
9. Trojanowicz R., Bucqueroux B. Community Policing: A Contemporary Perspective. – Routledge, 1998. – P. 77.
10. Kogan W., Hartnett S. Community Policing: Chicago Style. – Oxford: Oxford University Press, 1997. – P. 77.
11. <https://uz24.uz/uz>.

